

## EPITELIY TO'QIMASI TUZILISHI VA XOSSALARI

Qurbanova S.R

Ishandjanova S.X


Toshkent tibbiyot akademiyasi 2 kurs talabasi, Gistologiya ba tibbiy biologiya kafedrasi  
katta o'qituvchisi, PhD

**Annotatsiya:** Epiteliy to'qimasi tananing to'rtta asosiy to'qimasidan biridir. Men epiteliy to'qimasi tananing barcha ichki bo'shliqlari va o'tish joylarini qamrab olishi va barcha ochiq yuzalarni qoplashi hamda klinikada teri ko'chirib o'tkazish haqida ma'lumotga ega bo'lgan holda adabiyotlarni tahlil qildim.

**Kalit so'zlar:** Epiteliy, silindirsimon epitheliy, kollagen va elastik tolalar, apikal va bazal qutblar, teri transplantatsiyasi

### KIRISH

Epiteliy to'qimasi ko'p hujayrali hayvonlarda tanani va tana bo'shlig'ini qoplab turuvchi, ko'pchilik bezlarning asosiy funksional tarkibini tashkil etuvchi to'qima. Epiteliy to'qimasi tana yuzini tashqi muhit bilan o'zaro aloqada bo'lgan organlarni, jumladan, ovqat hazm qilish kanalining, nafas olish organlarining va siyidik ajratish organlarini ichki yuzasini qoplab turadi. Epiteliy quyidagi muhim vazifalarni bajaradi: himoya, sekretor, ekskretor, so'rish vazifasi



1-rasm.Bir qavatli ko'p qatorli kiprikli epitheliy

Epiteliy- qoplovchi to'qima tananing butun yuzasini, kovakli organlar ichini va zardob pardalarni qoplab turib, organizmda bir qancha bezlarni hosil qiladi. Epiteliy himoya, trofik(moddalar almashinuv) va sekretsiya vazifasini amalga oshiradi. Bu to'qima ma'lum qalinlikka ega, bir yuzasi tashqi muhitga qaragan, ikkinchi yuzasi esa biriktiruvchi to'qimaga tegib turuvchi hujayradan iborat qavat(plast)dir

Ilk bor hosil bo'lgan epitheliy hujayralar ona organizm bilan homila o'rtasida muddalar almashinuvini ta'minlaydi. Epiteliy to'qimasi kelib chiqishi va bajaradigan funksiyalari turlicha bo'lib, boshqa to'qimalardan o'zining xususiyatlari bilan farq qiladi.

1. Epiteliy to'qimasi doimo basal membranada yotadi.

2. Epiteliy to'qimasi nerv tomirlar bilan ta'minlangan.

3. Epiteliy to'qimasi yuqori darajada regeneratsiya(tiklanish)qobilyatiga ega.

4. Epiteliy to'qimasi bir-biriga zich joylashgan plast holdagi hujayralar to'mlamidan iborat bo'lib, hujayralararo modda deyarli bo'lmaydi.

5. Epiteliy to'qimasi bazal membranada joylashgani sababli, uning tarkibidagi hujayralar qutbli differensiallanish xususiyatiga ega, ya'ni hujayralarning apikal va bazal qismlari farqlanadi.

6. Epiteliy to'qimasida qon tomirlar bo'lmaydi, uning hujayralari bazal membrana orqali ostidagi qo'shuvchi to'qimalardan oziqa moddalarni diffuziya yo'li bilan oladi

Epiteliy to'qimasi rivojlanishi, tuzilishi va funksiyasiga qarab bir necha bor klassifikatsiya qilingan, shulardan keng qo'llaniladigani filogenetik va morfofunksional klassifikatsiyalardir.

Filogenetik klassifikatsiya bo'yicha 5ga bo'linadi:


Teri epiteliysi, Ichak epiteliysi, Buyrak epiteliysi, Selomik epiteliy, Epandimogik epiteliy.

Morfofunksional klassifikatsiya bo'yicha epiteliy to'qimasining hujayralarini bazal membrana bilan aloqasiga ko'ra: Bir qavatli va ko'p qavatli, Ko'p qatorli epiteliy.

Epiteliy va uning ostida joylashuvchi biriktiruvchi to'qima orasida asosiy(bazal) membrana bor. Bu membrana hosil bo'lishida har ikkala qo'shni joylashgan to'qima ishtirok etadi. Bir qatlamlili epiteliylarda barcha hujayralar o'zlarining basal uchi bilan ana shu membranaga tegib tursa, ko'p qatlamlili epiteliyda basal membranaga tegib turuvchi hujayralar qatlami ustiga bu membrana bilan aloqador bo'lмаган hujayralar bir necha qatlam bo'lib joylashadi.

Epiteliyning ayrim turlarida, ayniqsa, silindirsimon epiteliyning maxsus moslamalari hoshiya, tukchalari bo'ladi.

Epiteliylarning embryonal taraqqiyotini hisobga oluvchi genetik tasnifga muvofiq ektodermal, endodermal va mezodermal epiteliylar farq qilinsa, funksional tavsif teri, ichak(trofik), tukchalik-tebranuvchi, bezli(sekretor) epiteliy farq qiladi.



2-rasm.Bir qavatli epiteliy to'qimasi xillari


Bir qavatli epiteliy. Bu epiteliyning hujayralarini barchasi basal membranada joylashgan bo'lib, bir qator va ko'p qatorli bo'lib yotadilar. Bir qavatli, bir qatorli epiteliyning tuzilishini ta'riflaganda "bir qatorli" atamasi qo'llanilmaydi.

Hujayralarining shakliga qarab yassi, kubsimon va silindirsimon yoki prizmatik epiteliyga bo'linadi.

Bir qavatli yassi epiteliy-mezoteliy deb nomlanib, tananing ikkilamchi bo'shlig'i yoki selom bo'shlig'ini hosil qiluvchi mezodermaning hosilasidir. Mezoteliy seroz pardalar-plevra va qorin pardalarning parietalva visseral varaqlarini yurak oldi xaltachasi devorini qoplab turadi. Mezoteliy hujayralari 2ta yoki 3ta yassilashgan yadroga ega bo'lib, elektron mikroskop ostida qaraganda qorin bo'shlig'iga qaragan erkin yuzasida mikrovorsinkalar tutadi. Hujayralar bir-biri bilan desmosomalar yordamida bog'lanadi.

Mezoteliy yuzasi silliq bo'lganligi sababli ichak peristaltikasida, yurakning qisqarishi, o'pkaning nafas ekskursiyasida, organlarning sirpanma harakatida muhim rol o'ynaydi hamda organlarning o'zaro yopishib qolmasligini ta'minlaydi. Mezoteliy yuksak darajada regeneratsiya qobiliyatiga ega bo'lib, fiziologik holatda hujayra 4-6 % bo'shliq suyuqligida erkin xolatda bo'ladi. Ajralib turgan hujayralar o'rnini qo'shni hujayralar surilib to'ldirib turadi. Patalogik holatda ajralib tushgan hujayralar o'rnida teshikchalar hosil bo'ladi.

Bir qavatli kubsimon epiteliy-Buyrak kanalchalarida, bezlarning chiqaruv naylarida, kichik bronxlarda uchraydi. Kubsimon hujayralarning yadrosi yumaloq shaklda bo'lib, hujayraning markaziy qismida joylashadi. Sekretor hujayral(bezlar)da sekretsya bilan bog'liq organellalar taraqqiy qilib, sekretor kiritmalar uchraydi.



3-rasm.Bir qavatli kubsimon epiteliy


Bir qavatli silindrsimon- epiteliyning hujayralari baland prizmatik shaklda bo'lib, bir-birga zich joylashadi. Me'da shilliq pardasini qoplagan prizmatik hujayralar sektor xususiyatga ega bo'lib shilliq ishlaydi. Ichak tarkibidagi epiteliy hujayralarining orasida maxsus shilliq ishlovchi qadahsimon, bakalsimon hujayralar bo'ladilar. Bu shilliq ishlovchi hujayralar me'da va ichaklarni shilliq qavatlarini mexanik va kimyoviy ta'sirotlardan himoya qilib turadi.

Ichak epiteliysining asosiy prizmatik hujayralari ovqatni ichaklarda surilish jarayonida muhim vazifani bajarganliklari tufayli o'ziga xos tuzilishga egadirlar.

Ichaklarning shilliq pardasi silindrsimon "hoshiyali" epiteliy bilan qoplangan. Epiteliyning so'rilib jarayonida ishtirok qiluvchi hoshiyasi ingichka ichaklarda, ayniqsa kuchli taraqqiy qilgan va elektronmikroskopik

tekshirishlarning ko'rsatishicha, hoshiyali tig'iz joylashgan barmoqsimon o'simtalar- mikrovorsinkalardan iborat. Mikrovorsinkalar tashqi tomondan plazmolemma bilan o'ralgan, silindr shaklida gisito-plazmatik o'simtalardir. Ularning uzunligi 2 mkm gacha, diametri esa 0,08-0,1 mkm. Yetuk hujayra yuzasida 2-3 minggacha mikrovorsinkalar bo'lib, bu hol hujayra so'rish yuzasini bir necha marta oshiradi. Laboratoriya hayvonlarida o'tkazilgan tajribalar epiteliy hujayralarida mitoz bir soat-u 15 daqiqa davom etib, ichak vorsinkasini qoplovchi epiteliy 18-54 soat ichida batamom yangilanishini ko'rsatdi.

Bir qatorli silindrsimon epiteliyning yana bir turi tukchalik-tebranuvchi epiteliy tuxum yo'li va bachadon shilliq pardasida uchraydi. Epiteliy hujayralari tebranuvchi turkchalarga ega. Tukchalik hujayralar orasida kubsimon, tukchalar yo'q, sekret ishlab chiqaruvchi hujayralar bor. Bir qatlamlili bir qatorli silindrsimon epiteliyning ayrim turlarini o't pufagining shilliq pardasi, bezlarning chiqaruv yo'llari, buyrakning siyidik naychalarida uchratamiz.



4-rasm. Ko'p qatlamlili epiteliy laminal yuzasida va yoki gastroeozafial birikma biopsiya namunalarida chuqurroq bezlar ichida aniqlanishi mumkin (A). U kislotali buyoqlarni (B) o'z ichiga olgan yuzaki yetilmagan ko'rinishdagi g hujayralarining ikkinchi belgi bilan aralashtirilgan bazal joylashgan skuamoid hujayralarning ikki populyatsiyasini o'z ichiga oladi (gematoksilin-eozin, asl kattalashtirish 3100 [A] va 3600 [B]).

Ko'p qavatli epiteliy - bir necha qavat joylashgan hujayralardan tashkil topgan. Ularning har bir qavatini tashkil etuvchi hujayralar morfologik tuzilishi va bajarilishiga qarab bir-biridan farq qiladi. Eng ostki qavatni tashkil etuvchi epiteliy hujayralari bazal membrana ustida joylashgan bo'lib, u bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Ko'p qavatli epiteliy umurtqali hayvonlar organizmining aksariyat qismini qoplab turadi. Yo'ldosh orqali rivojlanuvchi sut emizuvchilarda ular teri, og'iz

bo'shlig'i, qizil o'ngach, ko'zning muguz (shox) pardasini va ayirish organlarida mavjud.

Mikroskopik tuzilishiga ko'ra ular uch turga bo'linadi: Muguzlanadigan, Muguzlanmaydigan, O'zgaruvchan epiteliy.

Ko'p qavatli muguzlanuvchi yassi epiteliy. Bu epiteliy hayvonlar terisi yuzasini qoplab turadi. Teri ikki qavatdan tuzilgan: bиринчи ташқи epiteliy hujayralardan tashkil topgan—epidermis va ikkinchisi uning ostida joylashgan xususiy teri dermadan iborat. Teri ostida yog' kletchatkasi bo'lib, tanani turli qismlarda har xil qalinlikda bo'ladi. Morfofunktional xususiyatiga qarab 5 ta qavat tafovut qiladi: bazal, tikansimon, donador, yaltiroq va muguz qavatlar

Bazal membranada bir qator silindrsimon hujayralar joylashgani uchun uni bazal qavat deb ataladi. Uning ustida bir necha qavat joylashgan o'siqlik ko'p qirrali hujayralar bo'lib, tikansimon hujayralar qavatini hosil qiladilar. Bu qavatdagi hujayralarning orasida hujayralararo ko'prikchalar paydo bo'lib, bir-birlari bilan zinch tutashadi. Ular orasidagi desmosomalar hujayralarni o'simtalar orqali bog'lanishini ta'minlaydi. Bazal va tikanaksimon qavatdagi hujayralarda maxsus organellalar – tonofibrilla bo'lib tayanch vazifani bajaradilar.

Donador qavat tarkibidagi yassilangan duksimon hujayralarning sitoplazmasida fibrilla oqsildan tashkil topgan – keratogialnal donachalari bo'lib, u keyinchalik shox modda – keratinga aylanadi.

Yaltiroq qavat asosan kaft va tovon terisi sohalarida mavjud bo'lib, hujayralarda yadro bo'lmaydi. Sitoplazmasi oqsil modda – eleidin bilan to'lgan 3-4 qavat yassi hujayralardir. Yaltiroq qavat hujayralar muguz tangachalar hosil bo'lishidagi bir holatdir. Muguz qavat – muguz tangachalardan tashkil topgan o'lik hujayralar bo'lib, tangachalar doimo tushib turadi, ularni o'rnini ostki qavatdagi hujayralar siljib to'ldirib turadi. Buning hisobiga epiteliy doimo taxlanib turadi. Bazal va tikanaksimon qavatlar hujayralari bo'linib, ko'payib differensiyalashadi, so'ngra muguzlanish jarayoniga uchraydi va yuqori qavatlarga siljib tushib turadi. Bu jarayonga fiziologik regeneratsiya deyiladi.

Ko'p qavatli yassi muguzlanmaydigan epiteliy. Ushbu epiteliy og'iz bo'shlig'inining ichki yuzasini, qizilo'ngachning shilliq qavatini va ko'zning muguz pardasini qoplaydi. Unda quyidagi qavatlar farqlanadi: bazal, tikansimon va yopqich. Epiteliyning eng yuza qavatida yassilashgan hujayralar o'zining hayot siklini tugatib, muguzlanmay tushib ketadi.

Ko'p qavatli o'zgaruvchan epiteliy. Bu epiteliy buyrak kosachalari, jomi, siydk yo'llari va siydk pufagining ichki yuzalarini qoplagan bo'lib, a'zolarning siydk bilan to'lgan va to'lmaganligiga qarab epiteliy hujayralarining shakllar o'zgarib turadi. O'zgaruvchan epiteliyning tarkibida 3 ta qavat farq qilinadi.

1) bazal qavat – mitoz yo‘li bilan ko‘payadigan kam differensiyalashgan kubsimon hujayralar qavati,

2) oraliq -bir yoki bir necha qavat bo‘lib joylashgan noto‘g‘ri yoki noksimon hujayralar qavati,

3) yopqich - ustki qavat – ko‘p yadroli yirik hujayralar qavatidir.

Bazal qatlam (silindrsimon qatlam, kambial yoki mitoz qatlami) silindrsimon shakldagi kam tabaqalangan va ko‘payuvchi (stvol liniya) hujayralardan iborat. Bu qatlam hujayralari plazmolemmanning qalinlashgan qismidan iborat juft, desmosomaga o‘xshash moslamalar bilan bazal membranaga yopishib turadi.

Oraliq qatlam asta-sekin mitotik faolligini yo‘qotuvchi, lekin hali kam tabaqalangan, konturi (chegarasi) noto‘g‘ri va burmalarga ega, o‘z shaklini oson o‘zgartiruvchi bir necha qavat qanotdor yoki tikanli hujayralardan iborat. Epiteliy shikastlanganda bu qatlam hujayralari mitoz yo‘li bilan bo‘lina oladi.

Qoplovchi qatlam to‘riqligicha tabaqalangan, tez o‘lib nobud bo‘luvchi hujayralardan iborat. Ko‘pincha bu hujayralarda shox modda (keratin oqsili) paydo bo‘ladi. Hujayralar desmosomalar tipidagi moslamalar yordamida o‘zar tutashib, hujayralar bo‘shliqlarni “sement” modda to‘ldiradi. Bu hol to‘qima suyuqligini tashqariga chiqishdan saqlaydi. Elektron mikroskopik tekshirishlar “sement” epiteliy oraliq qatlamidagi hujayralarning plastinkali kompleksida hosil bo‘lishini ko‘rsatadi. O‘lgan epiteliy hujayralari uzlucksiz ajralib tushib turadi.

Ko‘p qatlamli yassi epiteliy o‘zining joylashish o‘rniga ko‘ra, mexanik ta’sirotlarga ko‘p uchraydi va zararlanadi. Bu holat epiteliyning regeneratsiya qobiliyati kuchli bo‘lishini taqozo qiladi. Yallig‘langan biriktiruvchi to‘qima epiteliyning tiklanishini rag‘batlantiradi. Yallig‘lanishning yangi o‘chog‘igina bunday vazifani bajara oladi. Ko‘p qatlamli o‘tib turuvchi (o‘zgaruvchi) epiteliy siydk chiqaruv yo‘llarini qoplab turadi, siydk tarkibidagi zaharli moddalarning organizmga qaytadan so‘rilishiga va to‘qimalardan suvning diffuziya yo‘li bilan siydkka o‘tishiga to‘sqinlik qiladi.

Teri transplantatsiyasi. Yumshoq to‘qimalarning nuqsonlarini tiklash uchun teri transplantatsiyasi asrlar davomida ishlatilgan. Teri transplantatsiyasi hali ham jarrohlik kuyish terapiyasi uchun oltin standart sifatida qabul qilingan. Teri grefti-bu tananing zarar kurmagan joyidan sog‘lom epiteliyni olib tashlash jarayoni. Keyinchalik bu sog‘lom epiteliy yo‘qolgan yoki shikastlangan epiteliyni qoplash uchun ishlatiladi. Teri transplantatsiyasi katta yaralar, terini buzadigan suyak sinishi yoki terining bir qismi jarrohlik yo‘li bilan olib tashlangan joylarda qo’llaniladi. Epiteliy to‘qimasi zararlaganda ixtioz, gerpes, vitiligo psoriaz va shu kabi boshqa kasalliklar kelib chiqadi.

### Ixtioz kasalligi

Ixtioz (diffuz keratom) - bu irsiy teri kasalligi bo‘lib, unda keratinizatsiya jarayoni buziladi. Quruq teri po'stlog'i, kasallikning og‘ir holatlarida esa unda tarozilar paydo

bo'ladi. Ko'pincha ichтиоз о'зини erta bolalikda namoyon qiladi. Uni sotib olish juda kam uchraydi.

#### Sabablar

Ushbu kasallikning bir nechta turlari mavjud. Vulgar (oddiy) kasallikning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Ko'pincha, bu bola hayotining uchinchi oyida namoyon bo'ladi. Shuningdek, lamellar ichтиози, x-bog'langan va boshqalar. Ko'pgina hollarda ixtioz irsiy kasallikdir. Qabul qilingan ixtiyozning sababi endokrin tizimning buzilishidir.

#### Alomatlar

Alomatlar kasallikning turi va darajasiga bog'liq. Ixtiozning asosiy belgilari: terining qattiq quruqligi va tozalanishi; terining rangini o'zgarishi (rangi sariqdan qora ranggacga farq qiladi); plitalar terisida tarozi ko'rinishida(oq yoki kulrang) ko'rinish, og'ir holatlarda qo'pol jigarrang plitalar hosil bo'ladi; termoregulatsiya bilan bog'liq muammolar, terlashning pasayishi; kaft va oyoq ostidagi aniq chiziqlar; mo'rt sochlар va qichishish.

#### Diagnostika

DermaCenter mutaxassislari tomonidan kasallik tashxisi mavjud simptomlar asosida amalga oshiriladi. Qoida tariqasida, ichтиоз aniq klinik ko'rinishga ega va diagnostikada hech qanday qiyinchiliklarga olib kelmaydi. Shuningdek tayinlang: terining gistologik tahlili, umumiy va biokimyoviy qon testlar, siydikni umumiy tahlili.

#### Davolash

Afsuski, ichтиозни to'liq davolash mumkin emas. Zamonaviy tibbiyat faqat simptomlarni kamaytirishi mumkin. Buning uchun dori terapiyasi ko'rsatiladi: A, B, C, E vitaminlari va niatsin komplekslari; qalqonsimon bezning faoliyatini yaxshilash uchun gormonal dorilar.

Mahalliy dorilar va fizik davolanish zarur. Terini namlash uchun malham va kremlar buyuriladi. Salitsil kislotasi yallig'lanishni engillashtiradi va terini dezinfektsiyalaydi. Fizioterapevtik muolajalar sifatida terini davolaydigan va qichishishni yengillashtiradigan dorivor vannalar va loydan o'ralganlar buyuriladi. Faol agentni ichтиоз turiga qarab shifokor tanlaydi. Kasallikning kechishiga iqlim ta'sir qiladi. Sovuq havoda kasallik yanada kuchayadi. Shuning uchun bemorlarga iliq iqlimga o'tish tafsiya etiladi.

#### Profilaktika

Ushbu kasallik noaniq xarakterga ega bo'lganligi sababli, ixtiyozning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun profilaktika choralar mavjud emas.



Xulosa. Barcha epiteliy to‘qimalari quyidagi umumiy va muhim xususiyatlarga ega: Ichki organlarda joylashgan: Barcha epiteliy to‘qimalari bir yoki bir necha qatlamli qalin hujayralar varag‘idan iborat. Regeneratsiya: Epiteliy to‘qimasi tananing ochiq ichki va tashqi yuzalarida doimiy ravishda shikastlanadi yoki yo‘qoladi. Bu hujayralar epiteliyda joylashgan ildiz hujayralarining mitozi orqali doimiy ravishda almashinib turar ekan.

#### **ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Shodiyev N.Sh., Dilmurodov N.B. «Sitologiya, gistologiya va embriologiya» Darslik, Toshkent 2015.
2. Ibrohimov Sh.l. va b. "Sitologiya, gistologiya va embriologiya", darslik, T. 2006.
3. Shodiyev N.Sh va b. "Sitologiya, gistologiya va embriologiya", o‘quv qo‘llanma, T.2006
4. Козлов Н.А “Обшая гистология. Ткани домашних млекопитающих животных.” Учебн пособие для вузов СПб: Лан 2004
5. <https://dermacenter.uz/uz/prichiniy-i-simptomiy-ihtioza-v-tashkente>
6. Jo Ann Eurell, Dvm, Phd., Brian L. Frappier, Dvm, Phd “Dellmann’s Textbook of Veterinary Histology” Australia ©2006 Blackwell Publishing.
7. Allamurodov M.X. va Dilmurodov N.B. «Hayvonlar anatomiyasi» fanidan amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Samarqand 2005
8. Yunusov, H. B., Dilmurodov, N. B., Kuliev, B. A., & Akhmedov, S. M. (2021). The role of coccal microflora in the etiology and pathogenesis of respiratory diseases in lambs of the Karakul breed of Uzbekistan.

9. Кулиев, Б. А., Ахмедов, С. М., & Мухтаров, Э. А. (2022). Лечение т-активином ягнят каракульской породы, больных пневмонией. *Journal of new century innovations*, 17(4), 130-138.
10. Kuliev, B., & Mukhiddinovich, A. S. (2024). Injuries in Working and Sport Horses. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies* (2993-2599), 2(2), 13-19.
11. Kuliyev, B., Eshmatov, G., Bobonazarov, E., Mukhtarov, B., & Akhmedov, S. (2024). Pathomorphological changes in sheep paramphistomatosis. In BIO Web of Conferences (Vol. 95, p. 01042). EDP Sciences.
12. Rakhmanova, G., Dilmurodov, N., Normuradova, Z., Mukhtarov, E., & Yakhshiyeva, S. (2024). Dynamics of changes in morpho-histological parameters of the ovary of the egg-bearing hens in postnatal ontogenesis. In BIO Web of Conferences (Vol. 95, p. 01041). EDP Sciences.